

Termiz shahrida “Oilaviy bolalar uyi”ning ochilish marosimi o’tkazildi



Termiz shahrida “Oilaviy bolalar uyi”ning ochilish marosimi o’tkazildi Muhtaram Prezidentimiz tomonidan jamiyatimizdagi yetim bolalar va ota-onalarni qaramog’idan mahrum bo’lgan bolalarni tarbiyalashni tubdan yangilangan tizimini joriy etish, ularni barkamol avlod sifatida shakllanishi hamda ijtimoiy moslashuvini ta’minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, yetim bolalar va ota-onalarni qaramog’idan mahrum bo’lgan bolalarni qo’llab-quvvatlash maqsadida 2021-yil 9-avgust kuni “Yetim bolalar va ota-onalarni qaramog’idan mahrum bo’lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 5215-sonli qaror qabul qilindi. Mazkur qaror ijrosi yuzasidan mamlakatimizning barcha hududlarida amaliy ishlar boshlab yuborildi.

Xususan, Termiz shahridagi 12-sonli “Mehribonlik uyi”da 52 nafar bolalar tarbiyalanib kelayotgan edi. Bugungi kunga kelib, 26 nafar bolalar oilaviy bolalar uyi, oila va yaqin qarindoshlariga qaramog’iga qaytarildi. Bugun ham yuksak insonparvarlikning yorqin namunasi sifatida Amanova Barno hamda Umid Gairovlar oilasi Termiz shahridagi 12-sonli “Mehribonlik uyi”dan 6 nafar (Borisov Pavel Pavlovich, Karimov Islom Shuhrat o’g’li, Shilovskiy Albert Nikolaevich, Ro’ziev To’lqinbek Erkinovich, Shilovskaya Evelina Nikolaevna, Yesenkin Azizbek Jumaevich) bolalarni o’z tarbiyasiga olib, shahrimizdagi birinchi “Oilaviy bolalar uyi”ni tashkil etdi. Mazkur “Oilaviy bolalar uyi”da davlat tomonidan moliyalashgan 2 ta shtat berildi. Bundan tashqari, har bir bolaning oyma-oy oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa harajatlar ham davlat tomonidan to’liq qoplab beriladi.

Albatta mehrga muhtoj bolalarning boshini silash, unga mehr-oqibat ko’rsatish xalqimizga xos yuksak insoniy fazilatlardan sanaladi.

Bir bolaga yetti mahalla – ota-onalarni qaramog’idan surʼati yashayotgan har bir bolaning, u kimning surriyodi bo’lishidan qat’iy nazar, kelajagiga befarq bo’lmay, unga mehr-e’tibor ko’rsatsak, nafaqat ularni turli yot g’oyalarlar ta’siridan asragan bo’lamiz, balki yosh avlod oldidagi insoniy burchimizni ham ado etgan bo’lamiz.

Qolaversa, davlatimiz rahbari ta’kidlaganlaridek, farzandlarimizga qilgan har bir yaxshiligidan o’n yaxshilik bo’lib qaytadi!!!

